



MUSTAQIL TA'LIM, UNING TURLARI VA BAJARILISHIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

*Andijon davlat pedagogika instituti
mustaqil izlanuvchisi Qanoatova Nazokat*

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15256200>

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'limda mustaqil ta'lim, uning turlari, bajarilishiga qo'yiladigan talablar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, zamonaviy texnologiyalar, pedagogik, ta'lim.

O'zbekiston ta'lim tizimining jahon ta'lim maydoniga kirib borish zarurati olimlar va tadqiqotshilardan ta'lim muhitining turli jihatlarini o'rganish bo'yisha nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borishni talab qilmoqda. Zamonaviy ta'lim tizimi har bir talabaning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, o'z oldiga yuqori texnologiyali jamiyatda yashashga tayyor, hayot davomida innovatsion texnologiyalardan foydalanishga qodir shaxsni tarbiyalash maqsadini qo'yadi. Qo'yilgan maqsadni amalga oshirish, ko'r jihatdan tafakkurning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, dasturlash elementlari bo'lgan tafakkur shakllarini rivojlantirish talabalarning fikrlash qobiliyatlarini o'stirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, axborotlashtirish va texnologiyalashtirish hukm surayotgan bugungi davrda pedagogik mustaqil ta'limning o'rni va ahamiyati beqiyos. Sifatli pedagogik ta'lim har bir shaxsga jamiyatda o'zining munosib o'rnini torishi va yuqori mustaqil ta'lim texnologiyalarini tez, oson o'zlashtirishi ushun juda zarurdir.

Bugungi global ta'lim tizimining o'zgarishlari va innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi talabalar uchun faqat bilim olish jarayonini emas, balki mustaqil ravishda bilim yaratish, o'zlashtirish va qo'llash ko'nikmalarini ham shakllantirishni talab qilmoqda. Mustaqil ta'lim olish qobiliyatini rivojlantirish nafaqat shaxsning o'quv jarayonidagi samaradorligini oshiradi, balki uni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlaydi.

Talabalarning mustaqil ta'lim olish qobiliyatini rivojlantirish bugungi kun ta'lim jarayonida ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bu nafaqat o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, balki talabalarning shaxsiy va kasbiy hayotidagi muvaffaqiyatlarini ta'minlash uchun muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Mustaqil ta'lim faoliyati talabalarning ijodkorlik salohiyatini ochib beradi, ularning bilish jarayonlarini chuqurlashtiradi va o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantiradi. Axborot izlash, tahlil qilish va yechimlarni topish jarayonlari orqali talabalar o'z fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, bu esa ularning shaxsiy imkoniyatlarini mustahkamlaydi va kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun poydevor yaratadi. Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalarning jadallashgan rivoji sharoitida ta'lim tizimi inson kapitalini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, ularning hayot davomida ta'lim olish (lifelong learning) ko'nikmalarini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Talabalarning mustaqil ta'lim olish qobiliyatlarini rivojlantirish ushbu jarayonning asosiy bo'g'ini hisoblanadi.

Talabalarning mustaqil ta'lim olish qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi bo'yicha ko'plab olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ushbu izlanishlar asosan pedagogik yondashuvlar, ta'lim texnologiyalarini joriy etish va talabalarni o'quv jarayoniga faol jalb qilishning turli usullari atrofida jamlangan.

Lev Vygotskiy o'quv jarayonida talabaning mustaqillik qobiliyatlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratgan. Uning fikricha, "yaqin rivojlanish zonasi" (Zone of Proximal Development) doirasida talabalar murabbiy yoki bilimli hamkasblarning yordami bilan mustaqil ravishda bilim olishni o'rganadi. Bu tamoyil talabalarning bilimlarni amaliyotda qo'llash va o'z-o'zini rivojlantirish qobiliyatlarini shakllantirishda asosiy o'rin tutadi".

"Jean Piaget nazariyasiga ko'ra, ta'lim jarayonida talabalar yangi bilimlarni avvalgi bilimlari bilan bog'lash orqali mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. U o'quv jarayonini talabalar



faolligini oshiradigan mustaqil faoliyat bilan boyitish zarurligini ta'kidlagan. Uning nazariyasi kognitiv yondashuvlarni ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qilgan”. “Jerome Bruner ta'lim jarayonini talabalarni bilim olish jarayonida faol ishtirok etishga undashga qaratgan. Uning izlanishlari talabalarning bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishi uchun muammoli vaziyatlar yaratish va mustaqil tadqiqot faoliyatlarini tashkil etishning ahamiyatini ko'rsatdi”.

Mustaqil ta'lim – muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan hamda talaba tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakani shakllantirishni, o'zlashtirish darajasini amalga oshiriladigan ta'lim shakllaridan bo'lib, o'qituvchi maslahati va tavsiyalari, bilimlar taqsimotiga tayyorgarligi asosida auditoriyadan tashqarida bajariladi. Talabalarga mustaqil ish (ta'lim)ni bajarish yuzasidan kafedra professor-o'qituvshilari tomonidan metodik tavsiyalar beriladi. Fanning xususiyatidan kelib shiqib mustaqil ta'lim turlari, rang-barang va turli elektron ko'rinishlari fan o'qituvshisi tomonidan ishlab shiqiladi.

Mustaqil ish – talabaning o'qituvchining ko'rsatmasi ostida, lekin o'z-o'zini boshqarish va mustaqil o'rganish elementlarini o'z ichiga olgan holda bajarilgan o'quv faoliyati. Bu faoliyat o'qituvchining bergan topshiriqlarni bajarishga qaratilgan bo'lib, talabaning mustaqil bilimlarini mustaqil ravishda qo'llashini va muammolarni hal qilishini talab qiladi. Mustaqil ish tushunchasi o'qituvchining bergan topshiriqlarni talabaning o'z-o'zini boshqarish va mustaqil o'rganish elementlarini qo'llagan holda bajarishini tavsiflash uchun ishlatiladi. Talabaning o'z-o'zini boshqarish va mustaqil o'rganishga asoslanishi mustaqil ta'lim bilan umumiy jihatlari hisoblanadi. Mustaqil ta'limdan farqli o'laroq, mustaqil ish o'qituvchining bergan topshiriqlarni bajarishga qaratilgan bo'lib, talabaning mustaqil ta'lim olish faoliyatini boshqarish va mustaqil bilimlarini chuqurlashtirishga qaratilmagan.

Demak, mustaqil ta'lim - bu talabaning mustaqil ta'lim olish faoliyatini boshqarishga qaratilgan kengroq tushuncha, mustaqil ish esa o'qituvchining bergan topshiriqlarni bajarishga qaratilgan o'quv faoliyati. Mustaqil ish mustaqil ta'limning bir qismi bo'lishi mumkin, ammo mustaqil ta'lim mustaqil ishdan kengroq tushunchadir. Mustaqil ishlar talabalarni ilmiy ijodkorlikka, dolzarb zamonaviy muammolarni izlash va yechishga yo'naltirishda muhim rol o'ynaydi. Ular imtihonlarga tayyorgarlik ko'rish uchun seminarlar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, kurs ishlari va yakuniy nazorat ishlarini bajarishga yordam beradi.

Ilmiy ijodkorlikka yo'naltirishda, mustaqil ishlar talabalarni o'zlarining bilimlarini chuqurlashtirishga, yangi g'oyalarni ishlab chiqishga va o'zlarining ilmiy tadqiqotlarini olib borishga undaydi. Ular talabalarning tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va ma'lumotlarni tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Mustaqil ishlar talabalarni ilmiy adabiyotlar bilan tanishtirishga, ilmiy tadqiqotlarni olib borish usullarini o'rgatishga va ilmiy natijalarni taqdim etishga yordam beradi.

Dolzarb zamonaviy muammolarni izlash va yechishga yo'naltirishda, mustaqil ishlar talabalarni mustaqil ta'lim sohasidagi dolzarb muammolarni aniqlashga va ularni hal qilish usullarini izlashga undaydi. Ular talabalarning muammolarni tahlil qilish, yechimlarni topish va ularni amalga oshirish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Mustaqil ishlar talabalarni mustaqil ta'limdagi zamonaviy tadqiqotlar bilan tanishtirishga va ularning natijalarini tahlil qilishni nazarda tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” gi PF-60-son [Farmoni](#)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston respublikasi prezidentining Farmoni xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida Farmoni, 05.09.2018 yildagi PF-5538-son
3. Jabborova Malohat “TALABALAR AKADEMIK O'ZLASHTIRISHINING NAZARIYMETODOLOGIK TALQINI” Образование и инновационные исследования (2023 год №5)



MAKTABGACHA TA'LIM TARAQQIYOTI, MUAMMO YECHIM VA
ISTIQBOL” Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Andijon. 9-10 aprel
2025-yil



4. Iminova, D. N. (2021). Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati. Science and Education, 2(1), 301-303. <https://orcid.org/0009-0001-1507-7735> ORCID